

## O'QUVCHILAR BILIMINI MUSTAHKAMLASH UCHUN INTERFAOL METODLAR

Xalmatova Muxayyo Muratovna  
Jizzax davlat Pedagogika Universiteti o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada biologiya darslarida foydalanish mumkin bo'lgan turli xil interfaol metodlardan foydalanish ko'rsatib berilgan.

**Kalit so'zlar:** "Algoritm" metodi, "Kamalak" metodi, "Archa" didaktik o'yini, "So'zlarni top" metodi.

**Аннотация:** В данной статье показано использование различных интерактивных методов, которые можно использовать на уроках биологии.

**Ключевые слова:** метод «Алгоритм», метод «Радуга», дидактическая игра «Арча», метод «Найди слова».

**Annototion:** This article shows the use of various interactive methods that can be used in biology classes.

**Keywords:** "Algorithm" method, "Rainbow" method, "Archa" didactic game, "Find the words" method.

Boshlang'ich ta'limda o'qitishning innovatsion metodlarini qo'llashdan asosiy maqsad o'qituvchilar va o'quvchilar faoliyati izchilligini ta'minlash hamda uni maqsadga yo'naltirilgan holda tashkil etishdir. O'qitishning faol metodlariga "Aqliy hujum", "Zinama-zina", "Klaster", "Davom ettir", "Archa", "Yelpig'ich", "Sinkveyn", "Zanjir", "Meni tushun", "Sehrli katak", "Oyga sayohat" kabilarni kiritish mumkin.

### "Algoritm" metodi

"Algoritm" atamasi buyuk o'zbek matematigi Al-Xorazmiy nomidan kelib chiqib, uning mashhur "Al-jabr va al-Muqobala" asari bilan bog'liq. Algoritm - berilgan natijaga erishish uchun qilinishi kerak bo'lgan aniq ko'rsatmalar ketma-ketligi.

Ushbu metod o'quvchilarning o'tilgan mavzu yuzasidan o'zlashtirishi kerak bo'lgan muayyan tushunchalarga egaligini aniqlash va ularda kompetensiyaviy ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Metodni qo'llash quyidagi ketma-ketlikda olib boriladi: kichik guruhlar shakllantirilib, ularga nom beriladi, har bir guruhga raqamlar bilan belgilangan nuqtalar tasviri tushirilgan A-4 formatdagi qog'oz tarqatiladi, guruh a'zolari berilgan shart asosida nuqtalarni birlashtiradilar, hosil bo'lgan shaklga oid ikkitadan fikr bildirish aytiladi. O'quvchilar ketma-ketlikda o'z fikrlarini bayon etadilar, ular xattaxtaga yozib boriladi, so'ngra o'qituvchi fikrlar qay darajada to'g'riligini muhokama qiladi, to'g'ri fikrlar rag'batlantirilib, guruh ishlari umumlashtirilib, yakuniy xulosa chiqariladi.

### "Kamalak" metodi

Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda bir yo'la mavzuning turli tarmoqlari haqida axborot beriladi. Ayni paytda ularning har biri alohida muhokama qilinadi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik va kamchiliklari, foyda va zararli tomonlari ochib

beriladi. "Kamalak" metodining maqsadi o'quvchilarni erkin, mustaqil, tanqidiy fikrlashga, izlanishga, fikrlarini jamlab taqqoslash uslubi yordamida o'tilgan mavzulardan egallagan bilimlarini kundalik faoliyatda qo'llay olishga o'rgatishdan iborat. Metod imkoniyatdan kelib chiqib, yakka yoki kichik guruhlarda olib borilishi mumkin. Kamalak tasviri tushirilgan qog'oz tarqatiladi va uning shartlari tushintirib o'tiladi. Bu metod Jizzax shaxridagi 19-umum ta'lim maktabida o'tkazildi va kovrak o'simligining bioekologik xususiyatlarini topishda o'quvchilar juda qiziqarli shart tarzida bajarishdi va o'zlarining «Ziradoshlar oilasi» mavzusida olgan bilimlarini yanada mustahkamlashdi.



*"Kamalak" metodi asosida o'qitish*

### "Archa" didaktik o'yini

O'yinning maqsadi o'quvchilar diqqatini jamlash, yakka, jamoaviy, guruh bilan ishlash, ijodiy va tashkilotchilik faoliyatini, ishga mas'uliyat bilan yondashuvni shakllantirish, bezash ishlari ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. "Archa" didaktik o'yini bir soatlik dars mashg'ulotiga mo'ljallangan. Buning uchun texnologiya darslarida yoki guruh mashg'ulotlarida karton qog'ozdan uch qismdan iborat archa maketi hamda archa o'yinchoqlari tayyorlab olinadi. "Archa" didaktik o'yini besh bosqichda olib boriladi..

1-bosqich: har bir qatordagi o'quvchilarga geometrik shakllar tarqatiladi. Guruh a'zolari geometrik shaklga ta'rif berib, undagi harflardan o'z guruh nomlarini hosil qiladilar va unga ta'rif beradilar. Guruh archaning birinchi qismini qo'lga kiritadi.

2- bosqich: o'tilgan mavzu asosida "Aqliy hujum" metodi olib boriladi. Yaxshi natijaga erishgan guruh archaning ikkinchi qismini qo'lga kiritadi (*archa qismlari birlashtirib boriladi*).

3- bosqich: uyga vazifa "Do'stim, meni tushun" metodi orqali tekshiriladi. To'g'ri bajargan guruh archaning uchinchi qismini qo'lga kiritib, archani yasashga erishadi.

4- bosqich: yangi mavzuni mustahkamlash jarayonida "Test", "Klaster", "Tort" kabi metodlardan birini qo'llagan holda olib boriladi. Faol qatnashgan o'quvchilar archa o'yinchoqlari bilan rag'batlantiriladi.


5- bosqich: darsning yakunlovchi qismi bo'lib, guruh a'zolarining rag'batlari sanalib, archa bezatiladi. G'olib guruh aniqlanadi. Guruh archalari birlashtiriladi. O'quvchilarga

kuch do'stlik, ahillik va birdamlikda ekanligi, xuddi archadek bir tan-u bir jon bo'lsagina, tik tura olishi uqtiriladi.

"Archa" metodini fasllarga moslab, olma daraxti shaklida, archa o'yinchoqlari o'rnida gullardan, mevalardan foydalangan holda qo'llash mumkin. O'quvchilar faolligini oshirishda, chiroyli yozishga qiziqtirishda archa o'yinchoqlari bilan rag'batlantirib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

#### «Tarmoqlar» metodi (klaster)

Bu metod har bir fanda juda yaxshi natija beradigan metodlardan biri sanaladi. Bu metod o'quvchilarda topqirlikni, hozirjavblikni shakllantirishga yordam beradi. Bu metoddan men to'garak mashg'ulotlarida Ziradoshlar oilasiga mansub bo'lgan o'simlik kovarak o'simligini bioekalogiyasini o'rgatishda foydalandim va o'quvchilar tomonidan ham mavzuni o'zlashtirish jarayoni juda yaxshi bo'lganligini aniqladim. Bu metodda guruh a'zolarini 3 ga bo'lgan holda o'tkazdim, birinchi guruh o'simlikni unib chiqish dinamikasini, ikkinchi guruh bargi, poyasi va guli haqida ma'lumot to'plashdi. Uchinchi guruhga Kovrakning ahamiyatini klasterga solish vazifa qilib berildi, oxirida barcha to'plangan ma'lumotlarni birlashtirib tahlil tarzida hulosa qildik.



#### "Aqil charx" metodi

Bu metodda o'quvchilar 3 guruhga bo'lingan holda o'yin tarzida olib boriladi, bunda doskaga turli qiyinchilikdagi savollar doskaga tartib bilan joylashtiriladi, savollarning orqa tomoniga 3, 4, 5, sonlari yozilgan bo'lib guruh a'zolaridan navbatma-navbat doskaga chiqishib o'zlariga ma'qul bo'lgan savollarni tanlashadi va javob berishadi. Savolga to'g'ri javob bergan guruhga ball qo'yiladi, javob noto'g'rib bo'lsa 0 ball bilan baholanadi. Natijalar shart oxirida ballarni hisoblash orqali aniqlandi.



**“So`zlarni top” metodi**

HNJJJHGFDSDEWRTYHUJUKJMNBCDSDXDWERTGHIJMNBCDSWERTYHJH  
 KMNBCXDFRSERTYUJIKLNVXZSWRETYUJHKJLYODUIGVESGLKWHAETIUW  
 RATGIERGLSADVLHMVHTAIEPATPIHAEHHRMRYEHTEJGNBGDFHFGKJYGKHJ  
 H,LIHKTDEYWSTGRFXHGFVJMMHGBRSTAZEFDMMMGJTJ,VNBHGHJKMKNJHGB  
 VCFCGHJKMNJBHVGCFXJHYVGTDRXTXRTFCCKOVRKRGRGHVYGHJVBN CNVSASSI  
 QKOVRAKGF CUTGUJRXTDGF C JNBKBN O`HFFYGH H HGHGHMF CDFSEQW TGIU  
 OGBFCXDSDFGFYUDEFZXC HGN YUKFGDGFH HJJHOLMASHIFOBAXSHGKGVNTSE  
 T,FGTDEFCVHGFYHHGTJU UHYBIGBTYFCUZUMDRFDXGTCFCMAYMUNJONHY  
 GTBVJUGTVFBKIGFCRTDXTGRDFYTFIGYMALINAUJJKFDXASALCHILVZASDLO`V  
 IYASNNHBJKMNLJNMOSHMRSDXCVFDCFXREFCVGFREDFGVBF C B HSMOLAYGF  
 THNJKGVTF C NSEDRTGDSXDMFHBLIMONBJNKFC TTXDTGFCHJTDXRFCBKKH,Y  
 FYDMHHHHHHHHSISYEIUTHSDKNANJIRKAPELSINFJHDIUYIRLHEUYIHHGILOSS  
 HRGKHXZURICRYUVTYOAVYUOTVAOUOYTAWOYUVTOAUEWNUYAKUN GAB  
 OQARTHHFLKDSGJESUYHDYUSFHJJHJHHJFHJHJFKJFKNFKJFKJGKJFGJNNSHIU  
 JFKJVDSNHDUYGJSJJDIWGHUIHUHEFWHUHHHLHUGRLRJGWJHWFKUHDJJDD  
 JDJHUDHUDUHDJFJNNJSYGDHEJFDJKEJKEFRHJRBUFRJNJFJHNFJFDJHJDFJHDSJ  
 HUDHJUDFJHUDJHUDJHDFJHHJUHJUFDHJFFDHJHUDSHJUDHUH UDFHUDFSHJ  
 UDFSUHJUHHUDHUDHJUDHUDHDHDFHDFU

Bu metodda shu tarzda harflar betartib holatda berilgan bo`lib, bu harflar ichidan kovrak o`simligiga xos bo`lgan so`zlarni topish talab etiladi. Buning uchun o`quvchilarga 5 daqiqa vaqt beriladi va bu vaqt o`quvchining diqqatini bo`lish maqsadida biror bir musiqa ohangi qo`yib beriladi. Tezkor javob bergan guruh g`olib sanaladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:**

1. Muxayyo Xalmatova. TABIATSHUNOSLIK TOGARAKLARINING XILLARI //Журнал естественных наук. – 2022. – Т. 1. – №. 2 (7). – С. 3-5.
2. Muratovna X. M BOTANIKA TOGARALARINING XUSUSIYATLARI VA UNING TALABLARNING BILIMLARINI MUSTAHKAMLASHDAGI O`RNI //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – S. 855-859.
3. J.O. Tolipova. A.T. Gafurov Biology educational technologies. "Teacher" 2002